

**ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” DOSTONIDA KICHIK
JANRLAR POETIKASI**

Sheraliyeva Rayxona Sodiq qizi
*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti, Filologiya
yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida qo‘llanilgan kichik janrlar — masalan, latifa, hikmat, maqol, ibratli hikoyatlar kabi shakllarning poetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda ushbu janrlar orqali muallif ijtimoiy hayot, axloqiy qadriyatlar va insoniy fazilatlarni yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlagani yoritib beriladi. Kichik janrlarning tuzilishi, badiiy ifoda vositalari va ma'naviy-estetik yuklamalari maqola doirasida ilmiy asosda tadqiq etiladi. Shuningdek, ushbu janrlar orqali Navoiyning nasr va she'r uyg'unligi, xalq og'zaki ijodiga bo'lgan munosabati ham ochib beriladi.

Kalit so'zlar: "Mahbub ul-qulub" asari, kichik janrlar, fard, qit'a, masnaviy

Annotation

This article analyzes the poetics of minor literary genres used in Alisher Navoi's Mahbub ul-qulub. It explores how the author skillfully employs forms such as anecdotes, aphorisms, proverbs, and moral stories to reflect on social life, ethical values, and human virtues. The study examines the structure, artistic expression, and spiritual-aesthetic significance of these genres. Additionally, it highlights Navoi's synthesis of prose and poetry, as well as his deep appreciation for folk oral traditions.

Keywords: Mahbub ul-qulub, minor genres, fard, qit'a, masnavi

KIRISH

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari o'zbek mumtoz nasrining musajja' usulida yozilgan eng go'zal durdonasi hisoblanadi. “O'rta asrlarda nasrdan asosan ilmiy asarlar, manoqib va risolalar yozishda istifoda etilgan bo'lsa-da, ularning tarkibida ham nazmiy parchalardan foydalanish an'ana tusiga kirgan edi. Ushbu turning o'ziga xos adabiy janrlaridan shoir-u nosirlar o'z mahoratlarini namoyish qilish, poetik qarashlarini ifodalashda foydalanar edilar”. 1 Navoiy “Mahbub ul-qulub”ida nozik nazariy masalalarni she'riy janrlar vositasida sharh-u bayon etgan. Mutafakkir “Mahbub ul-qulub”da asosan kichik lirik janrlarda ijod qilgan. Asarning uch qismida jami 21 ta ruboiy, 30 ta qit'a, 26 ta masnaviy, 89 ta fard, 1 ta ta'rix – she'r keltirilgan. Demak, asarga besh xil janrdagi lirik asarlar kiritilgan.

Muhokama va natijalar

Navoiy o‘zbek adabiyotida eng ko‘p ruboiy yozgan shoirdir. Uning o‘zbekcha ruboiylari “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidan o‘rin olgan. Ularning umumiy soni - 133 ta. Navoiy nasriy asarlaridagi she‘riy parchalarning ayrimlari janr nuqtayi nazaridan ruboiy tarzida bitilgan. Masalan, “Xazoyin ul-maoniy”ga yozilgan nasriy debocha tarkibida 30 ta ruboiy keltiriladi. “Vaqfiya” asarida 16 ta, “Munshaot” asarida 54 ta va boshqa nasriy asarlari tarkibida ham ko‘plab ruboiylar mavjud. Navoiy Muhammad payg‘ambar alayhissalomning kuyovlari - hazrati Alining hikmatli so‘zlari jamlangan, “Nasr ul-laoliy” (“Marvarid hikmatlar”) asarini she‘rga solib tarjima qiladi. “Nazm ul-javohir” deb atalgan bu o‘ziga xos to‘plamdagi 268 ta va muqaddima qismdagi 30 ta to‘rt satrli she‘rlarning hammasi ham janr jihatidan ruboiy hisoblanadi. Demak, shoir o‘zbek tilida 500 dan ziyod ruboiy bitgan. Uning forsiy devoni – “Devoni Foni”da esa bu janring 100 ga yaqin namunasi mavjud. Agar Navoiyning nasriy asarlari tarkibida kelgan boshqa ruboiylarni ham qo‘shsak, shoirning bu janrdagi asarlarining soni yana ortganiga guvoh bo‘lamiz. Navoiyning insonparvarlik ruhida bitilgan “Mahbub ul- qulub” asaridagi 21ta ruboiydan 1 tasi kirish qismga, 8 tasi 1-qismga, 4 tasi ikkinchi qismga, 7 tasi uchinchi qismga, 1 tasi xotima qismiga kiritilgan. Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida ruboiyga shunday ta’rif beradi: “Ruboiy vaznikim, oni “dubaytiy” va “tarona” ham derlar”. Ma’lumki, ruboiy Sharq she‘riyatida keng tarqalgan she‘r turlaridan biridir, u ikki baytdan iborat bo‘lib, a-a-b-a, a-a-a-a tarzida qofiyalanadi va ularda shoirning hayot haqidagi teran mushohadalari, ichki kechinmalari, ibratli xulosalari, pand nasihatlarini ifodalanadi. Insoniy va ilohiy ishq, mehr-oqibat, insonparvarlik, yigitlik va qarilik, karam va muruvvatni hassoslik bilan kuylagan Hazrati Navoiyning betakror ruboiylarini o‘qiganda buyuk va oliyjanob qalb sohibining yurak tug‘yonlarini his qilamiz. Bu qalb sadolari mana oradan sal kam olti asr o‘tga hamki, millionlab odamlarni mushohada qilishga undaydi. “Mahbub ul-qulub”ning uchinchi qismidagi 90-tanbehida ta’zim va adab haqida shunday deyiladi: “Hazlg‘a shuru’dan behurmatlig‘ ortar va hazlning nihoyati jidolg‘a tortar. Ko‘p lahv hayo pardasin chok etar va adab va hurmat ahlin bebok. Qila olg‘oncha ta’zim va adab binosin yiqma va hayo va hurmat xilvatidin tashqari chiqma”. Quyidagi ruboiy tanbeh xulosasi bo‘lib kelgan:

Iymong‘a erur nishon hayo birla adab,

Hurmat bila ta’zim saodatqa sabab.

Hayyivu muaddab angakim, bo‘lsa laqab,

Maqsudig‘a kech yetsa ajab, angla ajab. [531]

Navoiy hadislarga hamohang tarzda hayo va adab imonning belgisi, hurmat va ta’zim esa saodatga sabab bo‘ladi. Hayoli va adabli deb nomlanganlar maqsadiga kech yetsa ajablanarlidir deb yozadi.

“Mahbub ul-qulub”ning muqaddimasida shoir o‘z hayot yo‘lida uchragan turli qiyinchiliklarga to‘xtaladi va quyidagi ruboiyni nasriy bayondagi fikrlariga mutanosib tarzda keltirib o‘tadi:

Gardun gah manga jafou dunluq qildi,
Baxtim kibi har ishta zabunluq qildi.
Gah kom sari rohnemunluq qildi,
Alqissa: base buqalamunluq qildi. [452]

Ruboiy hasbi hol xususiyatiga ega bo‘lib, unda muallifning tarjimai holi bilan bog‘liq holat qalamga olingan. Birinchi misrada “gardun” deganda “taqdir”ga ishora qilgan. Taqdir unga goh jafo-yu pastliklar qilgan, xuddi baxti kabi har ishda unga shikast, xor-u zorlik yetkazgan. Gohida u maqsadi sari yo‘l ko‘rsatdi. Xullas, qismat shoirga ko‘p buqalamunlik qildi. Navoiy ruboiyda taqdir goh jabr-u jafo o‘tkazib, goh siylaganini aytib, inson taqdirining bunday buqalamunligidan ustun kela olishi lozimligi g‘oyasini ilgari surgan. “Mahbub ul-qulub”ning yuqoridagi ruboiy keltirilgan kirish qismida ham muallif o‘z boshidan kechirgan bir-biriga zid holatlar tasvirini tazod san‘ati orqali badiiy gavdalantirgan.

Ahbob, yigitlikni g‘animat tutungiz.
O‘zni qariliq mehnatidin qo‘rqutungiz.
Oyini adovatu hasaddin o‘tunguz,
Har nav’ ila o‘zni necha kun ovutunguz. [535]

Ushbu ruboiy “Mahbub ul-qulub” asari 105-tanbehining xulosasi sifatida keltirilgan. Mazkur tanbehga “Shabob ayyomi zikrida” (“Yoshlik davri zikrida”) degan sarlavha qo‘yilgan. Unda “umr gulshanining bahori va hayot shabistoniningnahari” bo‘lgan yigitlik davri xususiyatlari ta’riflanadi. Bu ruboiyda shoir nido san‘atidan o‘rinli foydalangan. Barcha misralar a-a-a-a tarzida qofiyalanib, ruboiyi tarona (ruboyi musarra’, ziynatlangan ruboiy) usulida yozilgan. Raviydan so‘ng kelgan qo‘shimchalar ham ohangdosh bo‘lgani uchun mutlaq qofiyaga kiritishimiz mumkin.

Ruboiyning har bir satrida bir mav’iza ilgari surilgan:

- 1-misrada shoir do‘stlariga yigitlik davrini g‘animat bilishni;
- 2-misrada o‘zni hali oldinda qarilik mashaqqatlari borligi bilan qo‘rqitishni, ya’ni hozirgi kuch-quvvatga to‘la davrning qadriga yetishni;
- 3-misrada boshqalarga adovat va hasad qilish odatlarining bahridan o‘tishni;
- 4-misrada esa har qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham, o‘zni necha kun, ya’ni ana shu yoshlik davrida ovutishni nasihat qiladi. Ruboiy didaktik xarakterga ega bo‘lib, kishilarning qarilik eshik qoqmasdan oldinroq yoshlikning qadriga yetishi, ya’ni uni g‘animat bilishi kerakligi targ‘ib qilingan. Yoshlikni g‘animat bilish tushunchasining mohiyati esa juda keng. U kishini aynan oshlikda o‘z hayot yo‘lini to‘g‘ri o‘zanga solib olishga, baxtli qarilikning poydevorini oldindan qurishga, buning uchun adovat

va hasad kabi illatlardan forig‘ bo‘lib, navqironlik davrini mazmunli o‘tkazishga chaqirgan. Asarning 106-tanbehidan o‘rin olgan quyidagi ruboiylardagi fikrlar qarilik zikrida bo‘lib, qarilikni ziynati sifatida “O‘lmasdan burun o‘lmoq” hadisi o‘gitida yangraydi:

Chun ketti yigitliku uzoldi qariliq,
 Dam sovudi, ya’ni qolmadi qon ham isiq.
 Og‘zig‘a hayot sharbati bo‘ldi achig‘,
 O‘lmoq xushroqki, umr bu nav’ qattiq.
 Yoki:
 Afsuski, umri navjavonlig‘ ketti,
 Tang‘a qariliqda notavonlig‘ yetti,
 Gar yuz yil ulki komronlig‘ etti.
 Chun topmadi margdin amonlig‘, netti? [536]

Ruboiy afsus bilan boshlanib, yigitlik o‘rnini qarilik egallaganligi tazod san’ati orqali badiiylashtirilgan. Misralar oxirida ikki so‘zning o‘zaro qofiyadosh bo‘lib kelishi zulqofiyatayn san’atini yuzaga keltirib, mutakarrin qofiyani hosil qilgan. “Mahbub ul-qulub”dagi ruboiylarning ko‘pi ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Navoiy insonning ma’naviy va ruhiy kamoloti uchun qayg‘urgan. Asarning ikkinchi qism to‘rtinchi bobida qanoat zikri keltiriladi. Qanoat - tasavvuf maqomatlaridan biri. “Qanoat ibodat quvvati hosil bo‘lg‘oncha qut bila o‘tkarmakdur va andin ortug‘ barcha nimaning havasin xayoldin ko‘tarmakdur...”[488] Shu bobning so‘ngida keltirilgan quyidagi ruboiy ham qanoatning go‘zal ta’rifi bo‘lib, Asardagi turli janrlarda yozilgan she’rlarning umumiy soni 167 ta bo‘lib, 510 Misrani tashkil etadi. Navoiyni anglash uchun tasavvuf va qur‘on oyatlaridan, islomdan xabardor Bo‘lishlik zaruriy ehtiyojimizga aylanib bormoqda, chunki Navoiy botiniy latif ruh oqali Farididdun Attor, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Vali, Abdurahmon Jomiy kabi ilohiy ruh sohiblariga bog‘langan. Naqshbandiya sulukining yetuk ulamolaridan biri, olim va shoir abdurahmon jomiydan ilohiyot, tasavvuf ta’limoti va tarixi, badiiy ijodning nazariy masalalaridan saboq olgan va maslakdosh bo‘lgan. Hali 5-6 yoshligidanoq qur‘onni mutolaa qilganligi “majolis unnafois” Asarining ikkinchi majlisida berilgan va Sharafiddin Ali Yazdiy bilan suhbat ma’lumotlar bayonida aytib o‘tilgan. Ham nasrda, ham nazmda birdek yuksak saviyali asarlar yarata olish har kimga ham nasib etavermaydi. Alisher Navoiy dahosi buyukligining yana bir jihati shundaki, bu pokiza ruh sohibiga har ikkala shaklda ham tengsiz asarlar yarata olish iste’dodi ollohning buyuk in’omi edi. Alisher Navoiyning nasriy asarlaridan o‘rin olgan turli janrlardagi she’rlari

Navoiy she’riyatining ham nodir namunalari bo‘lish barobarida turkiy nasrning o‘ziga xos belgilaridan bo‘lgan nasr va nazm uyg‘unligi, voqelikning lirik talqini namunalari, bu xususiyatlarni kamolot darajasiga olib chiqqan noyob durdona asarlar

ekanligi bilan ham qadrlidir. “Mahbub ul-qulub” asarini she’riyat poetikasi nuqtayi nazaridan maxsus o’rganish bugungi adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Asar tarkibidagi ruboiylar, qit’alar, fardlar hamda masnaviylarning ayrimlari ushbu she’riy janrlarning eng go’zal namunalari sifatida mustaqil asar xususiyatiga egadir. Nazm sintezi kesimida janrlarning badiiy qonuniyatlariga xos bo’lgan mavzu, mazmun va shakl bilan bog’liq janr belgilari namoyon bo’ladi. Nasr va nazm uyg’unligida yaratilgan “Mahbub ul-qulub” asarining uch qismida jami: 19 ta ruboiy, 30 ta qit’a, 22 ta masnaviy, 90 ta bayt, 5 ta nazm, 1 ta ta’rix- she’r, 13 ta hikoyat keltirilgan. Bayt deb nomlangan 90 ta she’riy parchadan 89 tasi qofiyalanishi va shakliga ko’ra fard, 1 tasi masnaviy; 5 ta nazm deb nomlangan she’rlardan 2 tasi qofiyalanishi va vazniga ko’ra ruboiy va 3 tasi masnaviy janriga mansubligi aniqlandi. Demak, “Mahbub ul-qulub” asarining uch qismida jami besh xil janrdagi lirik asarlar: 21 ta ruboiy, 30 ta qit’a, 26 ta masnaviy, 89 ta fard, 1 ta ta’rix- she’r mavjud.

XULOSA

Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari tarkibida kelgan she’riy matnlarni to’plab, tahlil qilganimizda, aksariyat she’rlarning mazmun mohiyati Qur’on, hadislar va xalq og’zaki ijodi bilan bog’liq degan xulosaga keldik. Donishmand shoir iqtibos va tazod san’atidan unumli foydalangan. Hozirgi kunda Alisher Navoiy ijodiga bo’lgan e’tibor va e’tirof davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Muta’fakkir ijodi, nasriy va nazmiy merosi yangicha talqin va tahlil asosida o’rganilmoqda. Shoir asarlarining irfoniy mohiyati, she’riyatida Qur’oni karim oyatlarining badiiy talqinidan ma’rifatlanish shoir asarlari qalb ko’zgusiga chuqurroq nazar tashlash imkonini yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupova D. “Aruz va mumtoz poetikaga kirish”. “Akademnashr”, Toshkent 2020. 295-b;
2. G’afurjonova T. “Alisher Navoiy ijodiyoti va nasr problemalari”. “Fan”, Toshkent 1982. 36-59-b;
3. G’afforova Z. “Navoiyning hamd va na’t g’azallari”. “Ma’naviyat”, Toshkent 2001. 62-b;
4. Fozilov E. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati”, to’rt tomlik. “Fan”, Toshkent 1983. 656-b;
5. A.Navoiy “Mahbub ul-qulub” (Qalbgah mahbub hikmatlar va hikoyatlar), (A.Tilavov va I. Saydullaev tadbili) “Sano - standart”, Toshkent 2018. 183-b;
6. Davlatov O. “Alisher Navoiy she’riyatida Qur’on oyatlari va hadislarining badiiy talqini”. Fil.fan.falsafa d.d. avtoreferati, Samarqand 2017. 20-b;
7. Habibullaev A. “Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining janr xususiyatlari”. Filol.fan.nomz. diss.
8. Haqqulov I. “O’zbek tasavvuf she’riyatining shakllanishi va taraqqiyoti : filol.fan.dok. diss. Toshkent 1995. 283-b;
9. Muhiddinov M. “Odamiylik ta’rifi”. “Alisher Navoiy va 21 asr” Respublika ilmiy-nazariy konferentsiyasi. Toshkent 2017. 20-b;